



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISH BORASIDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING THE TELECOMMUNICATIONS SECTOR BY COMMERCIAL BANKS: INTERNATIONAL EXPERIENCE

¹Mirzaraximova Aziza
Azimdjanovna

¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada tijorat banklarining aloqa (telekommunikatsiya) sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishning xorijiy tajribasi tahlil qilinadi. Xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda telekommunikatsiya infratuzilmasini moliyalashtirishda qo'llanilayotgan kreditlash mexanizmlari, loyiha moliyalashtirish (project finance), sindikatlashgan kreditlar, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi investitsiya modellari hamda raqamli bank xizmatlarining o'rni o'rganiladi. Shuningdek, banklar tomonidan risklarni boshqarish, uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish va innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish amaliyoti yoritiladi. Tahlil natijalari asosida milliy bank amaliyotini takomillashtirish, aloqa sohasiga investitsiyalar hajmini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Eng. - This article analyzes international experience in improving the practice of financing the telecommunications sector by commercial banks. In particular, it examines lending mechanisms used in developed and developing countries for financing telecommunications infrastructure, including project finance, syndicated loans, public-private partnership (PPP) investment models, and the role of digital banking services. The study also highlights banks' practices in risk management, the formation of a long-term resource base, and the use of innovative financial instruments. Based on the analysis, proposals and recommendations are developed to improve national banking practices, increase investment in the telecommunications sector, and ensure financial stability.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ tijorat banklari, aloqa sohasi, telekommunikatsiya, moliyalashtirish mexanizmlari, loyiha moliyalashtirish, sindikatlashgan kredit, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya loyihalari, risklarni boshqarish, innovatsion moliyaviy instrumentlar, xorij tajribasi.

❖ commercial banks, telecommunications sector, financing mechanisms, project finance, syndicated loans, public-private partnership, investment projects, risk management, innovative financial instruments, international experience.

Kirish.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib

borayotgan bir sharoitda aloqa va telekommunikatsiya sohasi iqtisodiy o'sishning strategik drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi, innovatsion salohiyati hamda global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuv darajasini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va kengaytirish masalasi moliyaviy resurslarning samarali safarbar etilishini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatni raqamli rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish hamda iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Davlat rahbari tomonidan "Raqamli iqtisodiyot – taraqqiyotning muhim omili" ekanligi ta'kidlanib, telekommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish, keng polosali internet qamrovini oshirish va sohaga xususiy investitsiyalarni jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan [1].

Shu bilan birga, Davlat rahbari raqamli texnologiyalar va telekommunikatsiya sohalari bo'yicha strategik rejalarni muhokama qildi, bunda raqamli texnologiyalar va telekommunikatsiyalar infratuzilmasini kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish va innovatsion yechimlarni joriy etish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda tijorat banklarining roli beqiyosdir. Chunki aloqa sohasidagi yirik investitsiya loyihalari, ayniqsa, infratuzilma obyektlarini barpo etish va modernizatsiya qilish jarayonlari uzoq muddatli va katta hajmdagi moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining telekommunikatsiya sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish, risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etish hamda xalqaro moliyaviy instrumentlardan

foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda telekommunikatsiya infratuzilmasini moliyalashtirishda loyiha moliyalashtirish, sindikatlashgan kreditlar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda innovatsion moliyaviy instrumentlardan keng foydalanilmoqda. Ushbu tajribalarni o'rganish va milliy bank amaliyotiga moslashtirish O'zbekistonda aloqa sohasini barqaror rivojlantirish, investitsion faollikni oshirish va moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bois mazkur maqolada tijorat banklarining aloqa sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishning xorij tajribasi ilmiy tahlil qilinib, milliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklarining aloqa (telekommunikatsiya) sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish masalasi xalqaro moliyaviy institutlar va ilmiy doiralarda keng tadqiq etilmoqda. Jahon Banki ekspertlari telekommunikatsiya loyihalarida investitsiya xavfini kamaytirish uchun aniq regulativ muhit, shaffof tarif siyosati va barqaror daromad oqimlari zarurligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, infratuzilmani birgalikda foydalanish (infrastructure sharing) modeli kapital xarajatlarni qisqartirish va kredit qaytaruvchanligini oshirish imkonini beradi. Bank hisobotlarida qayd etilishicha, keng polosali internet qamrovining 10 foizga oshishi YaIM o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa tijorat banklari uchun telekommunikatsiya loyihalarining investitsion jozibadorligini kuchaytiradi [2].

O'zbekiston misolida ham Jahon Banki tomonidan tayyorlangan infratuzilma boshqaruvi va raqamli transformatsiya bo'yicha tahliliy hujjatlarda moliyaviy sektor islohotlari, bank tizimi barqarorligi va

investitsiyaviy muhitning yaxshilanishi telekommunikatsiya sohasiga xususiy kapital oqimini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Bu esa tijorat banklari tomonidan sindikatlashgan kreditlar, uzoq muddatli investitsion kreditlash va obligatsiyalar chiqarish kabi instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Andile Ngcabaning fikricha, "mintaqaviy hamkorlik va operatorlararo sherikliklar (sharing infrastructure) xarajatlarni kamaytirib, moliyalashtirish muammolarini yengillashtiradi; Jahon Banki ham umumiy infratuzilma ulushini bo'lishishni tavsiya qiladi" [3].

Angelo D'Andrea esa, "banklar raqamli kirish va ma'lumotlardan foydalangan holda kredit baholashni takomillashtirishlari kerak - bu telekom loyihalariga kredit ajratishda riskni kamaytiradi va investitsiyalarni rag'batlantiradi. Jahon Banki tadqiqotlari keng polosali xizmatlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi" [4].

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash xususidagi masalalar to'g'risida to'xtalib, D. MakNoton rivojlanayotgan mamlakatlarda kreditlash amaliyotini tashkil qilishning zaruriy shartlaridan biri kreditlarni garov ta'minoti asosida berishni odatiy hol sifatida qabul qilishdir, degan xulosaga keldi [5]. Uning fikriga ko'ra, garov sifatida olinadigan mulkning sotilish bahosi kredit va uning foizini qaytarishga yetishi lozim. Bizning fikrimizcha, olimning mulkni davriy baholash to'g'risidagi fikri respublikamiz amaliyoti uchun ham juda muhim hisoblanadi. Chunki mulklarning joriy bahosini tez-tez o'zgarish holati mamlakatimizning xo'jalik amaliyotiga xos bo'lgan holat hisoblanadi.

E.R. Yescombe loyiha moliyalashtirishni infratuzilma va kapitalli tarmoqlarni moliyalashtirishning samarali mexanizmi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, telekommunikatsiya kabi yuqori kapital sig'imli

tarmoqlarda banklar kreditni qarz oluvchining umumiy balansiga emas, balki loyiha generatsiya qiladigan pul oqimlariga asoslab baholaydi. Bu yondashuv risklarni taqsimlash va kreditni strukturaviy jihatdan himoyalash imkonini beradi [6].

Shuningdek, S. Gatti banklarning loyiha moliyalashtirishdagi rolini chuqur tahlil qilib, kredit riskini kamaytirishda sindikatlashgan kreditlar va kafolat mexanizmlarining ahamiyatini asoslab beradi. Uning ta'kidlashicha, telekommunikatsiya loyihalarida texnologik risk va talab riskini puxta baholash bank qarorlarining markaziy elementi hisoblanadi [7].

F. Modigliani va M. Miller kapital tuzilmasi nazariyasida korxona qiymati moliyalashtirish manbalaridan mustaqil ekanligini ilgari surgan bo'lsalar-da, real bozor sharoitida soliq va tranzaksion xarajatlar mavjudligi qarz va o'z mablag'lari nisbatining ahamiyatini oshiradi. Shu bois, aloqa sohasi korxonalari yuqori qarz yuklamasiga ega bo'lishi mumkin, bu esa tijorat banklari uchun kredit riskini oshiradi [8].

Brealey, Myers va Allenlar esa korporativ moliya nazariyasida uzoq muddatli investitsiyalarni baholashda NPV, IRR va diskontlash metodlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu metodlar banklar tomonidan telekommunikatsiya loyihalarini moliyalashtirishda keng qo'llaniladi [9].

Professor B. Rasulov raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimining transformatsiyasi va moliyaviy vositalarning diversifikatsiyasi masalalarini o'rganib, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish moliyaviy xizmatlar bozorini kengaytirishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, aloqa sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar bank xizmatlarining raqamli shakllarini rivojlantirishga ham turtki beradi [10].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining aloqa (telekommunikatsiya) sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish

masalasi nazariy va amaliy jihatdan keng o'rganilgan hamda kompleks yondashuvni talab qiladi. Xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, Jahon Banki tadqiqotlari telekommunikatsiya infratuzilmasiga investitsiyalar iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik va moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. Keng polosali internet qamrovining oshishi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir etishi esa banklar uchun mazkur loyihalarning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

O'zbekiston sharoitida ham moliyaviy sektor islohotlari, investitsiyaviy muhitni yaxshilash va bank tizimi barqarorligini mustahkamlash telekommunikatsiya sohasiga xususiy kapital jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli investitsion kreditlash, sindikatlashgan kreditlar, obligatsiyalar chiqarish hamda loyiha moliyalashtirish mexanizmlarini keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili tijorat banklarining aloqa sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish uchun nazariy asoslar yetarli ekanini, biroq milliy sharoitga moslashgan amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Dunyoning qator mamlakatlarida tijorat banklarining aloqa (telekommunikatsiya) sohasini moliyalashtirish amaliyotini

takomillashtirish borasida sezilarli tajriba to'plangan. Mazkur tajribaning O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati shundan iboratki, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan ustuvor tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish, keng polosali internet qamrovini oshirish, mobil va optik tarmoqlarni modernizatsiya qilish doimiy ravishda yirik hajmdagi va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni talab etadi.

Shu bois, aloqa sohasini barqaror rivojlantirish maqsadida tijorat banklari tomonidan mazkur tarmoqni samarali kreditlash mexanizmlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda nafaqat milliy bank amaliyotini chuqur tahlil qilish, balki rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlar banklari tomonidan telekommunikatsiya infratuzilmasini moliyalashtirishda qo'llanilayotgan ilg'or yondashuvlarni o'rganish ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xususan, loyiha moliyalashtirish (project finance), sindikatlashgan kreditlash, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari, infratuzilmani birgalikda moliyalashtirish (infrastructure sharing) hamda innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish tajribasi milliy sharoitga moslashtirilgan holda tatbiq etilishi lozim. Shuningdek, telekommunikatsiya loyihalarining yuqori kapital sig'imi va texnologik risklarini inobatga olgan holda kredit risklarini baholash, pul oqimlariga asoslangan tahlil metodlarini qo'llash va uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish masalalari ustuvor ahamiyatga ega.

Demak, tijorat banklarining aloqa sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishda xorij tajribasini tizimli o'rganish va milliy moliyaviy tizim xususiyatlarini inobatga olgan holda amaliy

mexanizmlarni ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Germaniya iqtisodiyoti turg'unlik holatida bo'lsa-da, telekommunikatsiya sanoati o'sish tendentsiyasini ko'rsatishda davom etmoqda. 2025-yil yanvar oyida bitkom sanoat assotsiatsiyasi hisobot yilida Germaniya telekommunikatsiya sanoatining umumiy daromadi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 foizga oshib, 74,3 milliard yevroni tashkil etganini taxmin qildi. Telekommunikatsiya uskunalari sohasida daromadlar 3,5 foizga, telekommunikatsiya xizmatlari sohasida

1,4 foizga, telekommunikatsiya terminal uskunalari sohasida esa 2,7 foizga oshdi.

Germaniyada hali ham statsionar va uyali aloqa xizmatlaridan olinadigan daromadlar bo'yicha bozor yetakchisi bo'lib qolmoqda. Ushbu muvaffaqiyat yuqori samarali tarmoqlar, mahsulotlarning keng assortimenti va yaxshi xizmat bilan bog'liq. Germaniya telekommunikatsiya sohasidagi o'z mijozlariga uzluksiz va texnologik ishlarni taklif qilmoqda hamda muntazam ravishda mahsulot assortimentini mijozlarimizning ehtiyojlariga moslashtirib bormoqda.

1-jadval

Jahonning 5 ta eng yirik telekommunikatsiya va aloqa kompaniyalari*

Yirik aloqa kompaniyalari	Faoliyat turi
AT&T Inc. (American Telephone and Telegraph)	Bosh qarorgohi Texas shtatining Dallas shahrida joylashgan Amerika transmilliy telekommunikatsiya konglomerati. Dunyodagi eng yirik telekommunikatsiya kompaniyasi. AQShda mahalliy va uzoq masofali telefon aloqalarining eng yirik yetkazib beruvchisi, shuningdek, AQShda uchinchi yirik uyali aloqa operatori hisoblanadi. DirecTV orqali AQShdagi eng yirik to'g'ridan-to'g'ri sun'iy yo'ldosh translyatsiyasi provayderi.
Verizon Communications	Amerika telekommunikatsiya kompaniyasi. Iste'molchilarga, kompaniyalarga va davlat idoralariga aloqa, axborot va ko'ngilochar mahsulotlar va xizmatlarni taklif etadi.
Nippon Telegraph and Telephone	Yaponiyaning eng yirik telekommunikatsiya kompaniyasi. Daromad hajmi bo'yicha kompaniya Osiyodagi eng yirik telekommunikatsiya kompaniyalari va dunyodagi uchinchi kompaniya hisoblanadi. Kompaniya aksiyadorlarining taxminan uchdan bir qismi Yaponiya hukumati tomonidan nazorat qilinadi. Kompaniya Fortune Global 500 ro'yxatida 65-o'rinni egallaydi.
Deutsche Telekom AG	Germaniya telekommunikatsiya kompaniyasi. Bosh qarorgohi Bonnda joylashgan. Kompaniya 1995-yilda Deutsche Bundespost Telekom davlat kompaniyasi sifatida tashkil etilgan. 1996-yilda aksiyalar Frankfurt va Nyu-York birjalarida ro'yxatga olinishni boshladi.
Telefonica	Ispaniya telekommunikatsiya kompaniyasi. Bosh qarorgohi Madridda joylashgan. Kompaniya telekommunikatsiya kompaniyalari orasida dunyoda sakkizinchi o'rinni egallab, 325 million abonentga xizmat ko'rsatmoqda.

*Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Bugungi kunda Germaniyaning Deutsche Telekom AG kompaniyasi dunyodagi eng muvaffaqiyatli telekommunikatsiya brendidir. Brendning hozirgi qiymati 85,3 milliard AQSh dollarini tashkil etadi, bu kompaniyaning 30 yillik tarixidagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Kelgusi yillarda guruh yanada tezroq o'sishni rejalashtirmoqda. Bunda global miqyosdagi

iqtisod va sun'iy intellekt (AI) va ma'lumotlarga asoslangan biznes modelidan izchil foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Deutsche Telekom AG operatsion natijalari -1,6 milliard evrodan 10,5 milliard evrogacha yaxshilandi, bu asosan boshqa operatsion daromadlarning yiliga 12,4 milliard yevroga ko'payishi va xodimlar xarajatlarining

0,4 milliard evroga kamayishi bilan bog'liq. Xususan, boshqa operatsion xarajatlarning 0,7 milliard yevroga ko'payishi kompensatsiya ta'sirini ko'rsatdi. Xodimlarni yollash bilan bog'liq guruh ichidagi xarajatlarning pastligi sof daromadning jami 0,1 milliard yevroga qisqarishiga olib keldi. 12,8 milliard yevrolik

boshqa operatsion daromadlar, xususan, T - Mobile US investitsiyalari uchun ko'p darajali xolding tuzilmasidagi aksiyalarning guruh ichidagi birlashishi tufayli yashirin xaziralardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan balans daromadlariga tegishli.

2-jadval

Deutsche Telekom AG daromadlari to'g'risidagi ma'lumot, mln. yevroda

Ko'rsatkichlar	2024	2023	O'zgarishi, foizda		2022
Sof daromad	1,964	2,110	(146)	(6.9)	2,250
Boshqa kapitallashtirilgan xarajatlar	2	2	0	0.0	9
Umumiy operatsion ko'rsatkichlar	1,966	2,112	(146)	(6.9)	2,259
Boshqa operatsion daromadlar	13,794	1,371	12,423	n.a.	2,480
Sotib olingan tovarlar va xizmatlar	(391)	(419)	28	6.7	(456)
Xodimlar xarajatlari	(1,566)	(1,964)	398	20.3	(1,936)
Amortizatsiya, amortizatsiya va hisobdan chiqarish	(117)	(174)	57	32.8	(277)
Boshqa operatsion xarajatlar	(3,193)	(2,481)	(712)	(28.7)	(2,919)
Operatsion natijalar	10,493	(1,555)	12,048	n.a.	(849)
Sof moliyaviy daromad (xarajatlar)	10,633	11,281	(648)	(5.7)	5,700
Daromad solig'i	(481)	(614)	133	21.7	(839)
Daromad solig'idan keyingi foyda	20,645	9,112	11,533	n.a.	4,012
Boshqa soliqlar	(18)	(17)	(1)	(5.9)	(18)
Sof daromad	20,627	9,095	11,532	n.a.	3,994

*Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Hisobot yilida 11,5 milliard yevro (2023: 12,1 milliard yevro) sho'ba, assotsiatsiya va qaram kompaniyalarning daromadlari, xususan, T Mobile Global Zwischenholding GmbH, Bonn tomonidan 6,4 milliard yevro (2023: 0,1 milliard yevro zarar) va Telekom Deutschland tomonidan berilgan foyda ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, sho'ba va qaram kompaniyalarning daromadlariga sho'ba korxonalarining operatsion faoliyati, xususan, T Mobile US aksiyalariga bevosita egalik qiluvchi bilvosita sho'ba korxonasi Deutsche Telekom Holding kapitalining qaytarilishi ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur maqola doirasida KfW (Kreditanstalt für Wiederaufbau) Germaniyaning davlat taraqqiyot banki faoliyatiga to'xtalib o'tamiz. KfW banki 1948-yilda tashkil etilgan bo'lib, davlat banki bo'lib, uning 80 foiz aksiyalari Germaniya

milliy hukumatiga, 20 foiz esa Germaniya erlariga (mintaqaviy hukumatlarga) tegishli. Bank mijozlarning depozitlarini qabul qilmaydi, aksincha mablag'larni deyarli faqat xalqaro kapital bozorlari orqali jalb qiladi. 2019-yilda KfW o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun ulardan 80,6 milliard yevro yig'di.

Germaniyaning davlat taraqqiyot banki sifatida KfW barqaror rivojlanishni moliyalashtirish va rivojlantirish bo'yicha keng vakolatlarga ega. Binobarin, u yashil energiya, texnologik innovatsiyalar, boshlang'ich korxonalar, davlat va ijtimoiy infratuzilma, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarni kreditlashda ishtirok etadi. Bundan tashqari, maxsus maqsadli moliyaviy vositachilar uchun odatiy bo'lmagan narsa, uning faoliyati Germaniya bilan chegaralanmaydi. Uning bankni rivojlantirish bo'limi Germaniya hukumati

nomidan rivojlanayotgan mamlakatlardagi loyihalarni moliyalashtiradi.

KfW banki, shuningdek, arzon uy-joy sotib olish va uy-joy barqarorligini oshirish uchun keng kreditlarni taqdim etadi. U uy-joy sotib olish va qurish uchun kreditlarni, shuningdek, yakka tartibdagi uy xo'jaliklari uchun uylarni ta'mirlash va energiya samaradorligini oshirish uchun kreditlarni moliyalashtiradi. Shuningdek, u xususiy, davlat va notijorat tashkilotlarga yangi energiya tejaydigan uylar qurish, eski turar-joy binolarini energiya tejaydigan qayta qurish va arzon uy-joylarni yaratish uchun kreditlar beradi.

KfW banki o'zi moliyalashtirayotgan loyihalar uchun mablag' yig'ish bo'yicha muhim ishlaridan tashqari, ushbu loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda katta texnik tajribaga ega bo'lib, keng qamrovli va murakkab loyihalarni baholash va tadqiqot dasturiga asoslanadi.

Natijada, bank davlat siyosatini ijtimoiy, iqtisodiy investitsiyalar, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va xalqaro rivojlanishga investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida xabardor qilishda muhim rol o'ynaydi va shu bilan siyosat islohotini shakllantiradi.

3-jadval

Hududlar va iqtisodiyotlar kesimida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) oqimlari (million AQSh dollari)

Yil	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirimi (FDI inflow)	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar chiqimi (FDI outflow)
2019	2 316	3
2020	1 728	11
2021	2 275	3
2022	2 498	4
2023	2 156	12
2024	2 836	37

*Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Yuqoridagi 3-jadvalda keltirilgan 2019-2024-yillardagi O'zbekiston bo'yicha FDI oqimlari dinamikasi global investitsiya jarayonlarining umumiy tendensiyalari bilan uyg'unlikda baholanishi lozim. UNCTAD tomonidan e'lon qilingan World Investment Report 2025 hisobotida ta'kidlanishicha, so'nggi yillarda xalqaro investitsiyalar tarkibida raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya va axborot infratuzilmasi loyihalarining ulushi ortib bormoqda.

Hisobotga ko'ra, 2020-yilda global FDI oqimlari keskin qisqargan bo'lib, bu pandemiya sharoitida investitsion faollikning pasayishi bilan izohlanadi. Jadval ma'lumotlarida ham 2020-yilda FDI inflowning 1 728 mln. AQSh dollargacha kamaygani ushbu global tendensiyaning milliy darajadagi aksidir. 2021-2022-yillarda esa xalqaro

investitsiyalarda tiklanish bosqichi kuzatilgan. Raqamli infratuzilma, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari va telekommunikatsiya loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar ushbu tiklanishda muhim rol o'ynagan. 2024-yilda FDI inflowning 2 836 mln. dollarga yetishi raqamli iqtisodiyotga oid loyihalar, infratuzilma modernizatsiyasi va xizmatlar sektoriga kapital jalb etishning faollashgani bilan izohlanishi mumkin. World Investment Report 2025 hisobotida qayd etilishicha, raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar an'anaviy ishlab chiqarish sektoriga nisbatan tezroq o'smoqda va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham ma'lumotlar markazlari, keng polosali internet va mobil infratuzilma loyihalari investitsiya oqimlarining asosiy drayveriga aylanmoqda.

FDI outflow ko'rsatkichlarining nisbatan pastligi O'zbekistonning asosan kapital qabul

qiluvchi iqtisodiyot sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda tashqi investitsiyalar chiqimining 37 mln. dollargacha oshishi milliy kompaniyalarning mintaqaviy va xalqaro bozorlarga chiqish tendensiyasi kuchayib borayotganini anglatadi. Umuman olganda, jadvaldagi ko'rsatkichlar World Investment Report 2025 da keltirilgan global xulosalar bilan mos ravishda quyidagilarni tasdiqlaydi: Global inqiroz sharoitida FDI oqimlari qisqarsa-da, raqamli iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar nisbatan barqarorroq bo'lgan. 2021-yildan boshlab investitsiya tiklanishi aynan infratuzilma va raqamli sektor loyihalari bilan bog'liq. Rivojlanayotgan mamlakatlarda telekommunikatsiya va raqamli infratuzilmaga sarmoya jalb qilish iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur FDI dinamikasi tijorat banklarining aloqa sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishda xalqaro kapital oqimlari va raqamli iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiya tendensiyalarini inobatga olish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining aloqa (telekommunikatsiya) sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish masalasi zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi, xususan Germaniya misolida, telekommunikatsiya tarmog'ining yuqori kapital sig'imiga ega bo'lishiga qaramay, barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etayotganini ko'rsatadi. Deutsche Telekom AG faoliyati tahlili kompaniya operatsion samaradorlik, investitsion boshqaruv va innovatsion biznes-modellar asosida global miqyosda muvaffaqiyatga erishayotganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, KfW davlat taraqqiyot banki faoliyati infratuzilma va innovatsion

loyihalarni moliyalashtirishda davlat moliyaviy institutlarining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Xalqaro kapital bozorlaridan mablag' jalb qilish, uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish va texnik ekspertizaga asoslangan loyiha baholash tizimi telekommunikatsiya kabi kapital sig'imli tarmoqlarni moliyalashtirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

UNCTADning World Investment Report 2025 ma'lumotlari asosida O'zbekistonda 2019-2024-yillardagi FDI dinamikasi global investitsiya tendensiyalari bilan uyg'un ekanligi aniqlandi. Xususan, pandemiya davrida investitsiyalar qisqargan bo'lsa-da, keyingi yillarda tiklanish kuzatilgan va 2024-yilda FDI inflow hajmi sezilarli darajada oshgan. Bu esa raqamli iqtisodiyot va infratuzilma loyihalariga kapital jalb etish imkoniyatlari kengayayotganini ko'rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, loyiha moliyalashtirish, sindikatlashgan kreditlar, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), infratuzilmani birgalikda foydalanish (infrastructure sharing) hamda pul oqimlariga asoslangan kredit baholash mexanizmlari telekommunikatsiya loyihalarini moliyalashtirishda risklarni kamaytiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi omillar hisoblanadi.

Demak, O'zbekiston sharoitida tijorat banklarining aloqa sohasini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish xorij tajribasini tizimli o'rganish, milliy moliyaviy tizim xususiyatlariga moslashtirish hamda innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etishni talab etadi.

Telekommunikatsiya infratuzilmasini moliyalashtirishda banklar kreditni qarz oluvchining umumiy balansiga emas, balki loyiha generatsiya qiladigan pul oqimlariga asoslangan holda baholash amaliyotini kengaytirishi lozim. Sindikatlashgan kreditlashni rivojlantirish. Yirik infratuzilma loyihalarida bir nechta banklar ishtirokidagi sindikatlashgan kreditlash mexanizmlarini keng qo'llash risklarni diversifikatsiya qilish va

uzoq muddatli resurslarni jalb etish imkonini beradi.

Umuman olganda, mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekistonda tijorat banklarining aloqa sohasini moliyalashtirish

samaradorligini oshirishga, investitsion faollikni kuchaytirishga hamda milliy moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda 2026-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan taqdimotdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/8867>
2. World Bank – Infrastructure Monitor 2024 (global trends in private infrastructure investment). <https://worldbank.org/curated/en/>
3. Ngcaba, A. "Speech by the director general of communications, Andile Ngcaba, at the telecommunications colloquium." 2001.
4. D'Andrea A., Limodio N. High-speed internet, financial technology, and banking //Management Science. – 2024. – T. 70. – №. 2. – P. 773-798.
5. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/topic/digital>
6. Yescombe, E.R. (2014). Principles of Project Finance.
7. Gatti, S. (2013). Project Finance in Theory and Practice.
8. Modigliani, F., & Miller, M. (1958). The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. American Economic Review.
9. Brealey, R., Myers, S., & Allen, F. (2020). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill.
10. Rasulov B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy sektorni rivojlantirish. – Toshkent: Iqtisodiyot.